

**ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARIDA TURLI
KASB EGALARIGA MUNOSABATI**

Abdiraupova Zarnigor Abdinabi qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universitetining

mustaqil izlanuvchisi

zarnigorabdiraupova@gmail.com

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada mumtoz adabiyotning nodir namunasi sanalgan didaktik ruhda yozilgan “Mahbub ul-qulub” asaridagi kasb egalari haqidagi tanbehlar tahlil qilinadi. Undagi turli kasb egalariga pand-nasihatlar berish orqali Alisher Navoiyning maqsadlari ochib beriladi.*

***Kalit soʻzlar:** didaktik, pand-nasihah, tanbeh, fasl, zikr.*

“Mahbub ul-qulub” Alisher Navoiyning axloqiy-didaktik mazmunda yaratilgan asari boʻlib, yozilish tarixiga koʻra, Navoiyning soʻnggi asari hisoblanadi (1500). Asar mutafakkir shoirning umri davomida hosil qilgan tajribalari, kuzatuv va xulosalari asosida yaratilgan. Asar muqaddima, uch qism va xotimadan iborat. Muqaddimani Navoiy anʼanaga koʻra, Alloh hamdi bilan boshlaydi. Muallif Alloh taoloning Al-Azim, Al-Muhsin, Al-Qodir, Al-Vojid, Ar-Razzoq, Al-Xoliq, Al-Qahhor kabi zotiy va feʼliy sifatlariga izoh berish orqali bandalik izhor etadi. Naʼt mazmunidagi satrlarda esa, xotamul anbiyo vujudidagi toʻrt unsurda oldingi paygʻambarlar moʻjizalari yashiringani madh etiladi. Islom paygʻambari koinot sarvari va barcha paygʻambarlardan afzal, insoniyatning eng yaxshisi deyiladi va buning vositasida islom dinining oʻzak mohiyatini tashkil qiluvchi gʻoya – barcha dinlar oʻz mohiyatiga koʻra bitta, barcha odamlar bir ota-onaning farzandi, paygʻambarlar bir-birlariga birodardirlar, degan fikr salavotlar zamiriga singdiriladi. Navoiy kitobning yozilish sabab va maqsadlari haqida fikr yuritarkan, qisqa jummlar vositasida oʻz oʻtmishiga nazar tashlab, tanqidiy nazar bilan baho

beradi. Unga ko‘ra, hayotning ko‘p achchiq-chuchugini totgan shoir qismatning turli sinovlariga duch keladi; falak uni gohida xorlik va bee’tiborlik bilan, gohida shuhrat va martaba bilan imtihon qiladi; ba’zida aziz zotlarning yaxshiligidan bahramand bo‘ladi, gohida nokas va bezotlarning dastidan aziyat chekadi; gohi muhabbatning ko‘rasida toblansa, gohida zuhd va taqvo riyozatiga mahkum etiladi. Asarning muqaddimasida ushbu satrlar keltiriladi:

*Gahe toptim falakdan notavonlig‘,
Gahe ko‘rdum zamondin komronlig‘.
Base issig‘-sovug‘ ko‘rdim zamonda
Base achchig‘-chuchuk tottim jahonda .¹*

Hayoti davomida undan kerakli saboq olgan va insoniylik bobida ko‘p tajriba orttirgan mutafakkir ushbu kitobni balog‘at bo‘lag‘asida turgan yoshlarni to‘g‘ri yo‘ldan adashmaslik uchun dasturulamal tariqasida yozganini qayd qiladi. Birinchi qism “Xaloyiq ahvol va af‘ol va aqvolining kayfiyati haqida” deb nomlanib, shoir undagi 40 faslda turli ijtimoiy tabaqalarning niyati, faoliyati va so‘zlari haqida o‘z xulosa va kuzatuvlarini bayon qiladi. Boblarga quyidagi tartibda sarlavha qo‘yilgan: 1) Odil salotin zikrida; 2) Islompanoh beklar zikrida; 3) Nomunosib noiblar zikrida; 4) Zolim va johil va fosiq podshohlar zikrida; 5) Vuzaro zikrida; 6) Noqobil sadrlar zikrida; 7) Fosiq va badmaosh, bahodirliq lofin urg‘onlar zikrida; 8) Yasovul guruhi zikrida; 9) Yasog‘liq va qaro cherik zikrida; 10) Shoh ulusi o‘ziga mushobih bo‘lur zikrida; 11) Shayx ul-islom zikrida; 12) Quzzot zikrida; 13) Muftiy faqihlar zikrida; 14) Mudarrislari zikrida; 15) Atibbo zikrida; 16) Nazm gulistonining xushnag‘ma qushlari zikrida; 17) Kotiblar zikrida; 18) Dabiriston ahli zikrida; 19) Imomlar zikrida; 20) Muqriylar zikrida; 21) Huffoz zikrida; 22) Mutrib va mug‘anniylar zikrida; 23) Qissasoz va qissaxonlar zikrida; 24) Nasihat ahli va voizlar zikrida; 25) Ahli nujum zikrida; 26) Tijorat ahli zikrida; 27) Shaharda olib sotquvchilar zikrida; 28) Bozor kosiblari zikrida; 29) Soyir hunarvar va san'atpardoziylar zikrida; 30) Shahna va zindoniylar va asalar zikrida; 31) Dehqonlik

¹ A. Navoiy, Mahbub ul- qulub. Toshkent: – 2-bet / www.ziyonet.com. kutubxonasi
www.tadqiqotlar.uz

zikrida; 32) Yatim va laimlar zikrida; 33) G'arib va benavolar zikrida; 34) Mubrim gadolar zikrida; 35) Qushchi va sayyod zikrida; 36) Tarbiyat topib, haromnamaklik qilg'on navkarlar zikrida; 37) Kadxudolig' sifati va xotunlar zikrida; 38) Riyoiy shayxlar zikrida; 39) Xarobot ahli zikrida; 40) Darveshlar zikrida. Ushbu boblarni mazmun-mundarijasiga ko'ra, quyidagicha tasniflash mumkin: 1) Podshoh va saroy ahlining tavsifiga bag'ishlangan boblar (1–10- boblar); 2) Jamiyatning diniy hayotida muhim rol o'ynaydigan toifalar (11–13, 19–21-boblar); 3) ta'lim-tarbiya, fan va madaniyat sohalari bilan shug'ullanuvchi kishilar (16–18, 22–25-boblar); 4) shaharda tartibni saqlash, tijorat, dehqonchilik va hunarmandlik bilan shug'ullanuvchi tabaqa (26–31-boblar); 5) oiladorlik va ayollar qatlami (37-bob); 5) keraksiz va zararli narsalarni o'ziga kasb qilib olgan, aniq kasb-korga ega bo'lmagan hamda jamiyatning qashshoq toifasiga mansub kishilar (32–34, 36–37, 39–40-boblar). “Mahbub ul-qulub”ning birinchi qismi jamiyatning siyosiy-iqtisodiy, harbiy va huquqiy hayotiga mas'ul bo'lgan toifaga tavsif berish bilan boshlanadi. Navoiyning uzoq yillar davomida hosil qilgan xulosasiga ko'ra, mamlakatning siyosiy barqarorligi, osoyishtaligi hamda rivoji, eng avvalo, odil podshoh, sadoqatli bek va vazirlar, o'z ishiga xolislik va diyonat bilan yondashadigan sadrlar, fidoiy bahodir va yasovullar, shijoatli va vatanparvar sipohiylarning dunyo va oxirat saodatini ko'zlab ish yuritishlariga bog'liqdir. “Odil podshohlar zikri”dagi fasl zaminida adolatni targ'ib qilish, shohning mamlakat tinchligi, ulusning farovon, baxtiyor hayotini targ'ib etishdagi o'rni va ahamitini ko'rsatish g'oyasi turadi”. Navoiyning diniy arboblari, shayxlar hamda o'rta asrlarda jamiyatning huquqiy tizimini boshqaruvchi ruhoniylarga bo'lgan munosabati “Mahbub ul-qulub”da yaqqol ifoda etilgan. Ulug' mutafakkir ham diniy, ham dunyoviy bilimlardan puxta xabardor yirik davlat arbobi sifatida shayxulislomlar, qozi va faqihlar, tariqat shayxlari, qorilar va hofizi qur'onlar, voizlar haqida fikr yuritir ekan, ularni diyonatli insonlar hamda ilmini vositai joh aylagan dindorlar toifasiga ajratadi. Navoiyning ta'kidlashicha, din arboblari jamiyatning ilg'or toifasi sifatida odamlarni haq yo'lga hidoyat qilishda shaxsiy ibrat ko'rsatib, riyokorlik, poraxo'rlik, ta'magirlik, g'arazgo'ylik kabi illatlardan

pok, ilm, ma'rifat va go'zal insoniy fazilatlar bilan ziynatlangan bo'lishlari kerak. Yomon yo'llarga boshlovchi, odamlarni gumroh etuvchi diyonatsiz dindorlar esa pok islom dini nomiga dog' tushiradilar. Ilm va ijod bilan shug'ullanuvchilarga bag'ishlangan boblar ichida shoirlarga bag'ishlangan 16-fasl alohida ahamiyatga ega. Bu faslda Navoiy o'zining she'r va shoirlik bobidagi fikrlarini ixcham tarzda bayon etib, shoirlarni bir necha tabaqaga ajratgan. Birinchi tabaqaga ilohiy ma'rifatni egallab, mutlaq haqiqatning ma'naviy durdonalarini nazm libosida ko'rsatishga jazm qilgan. Ali ibn Abutolib, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumi kabi avliyo zotlar, orif shoirlar kiritilgan bo'lsa, ikkinchi tabaqaga haqiqat asrorini bayon etishda majoz tariqi imkoniyatlaridan foydalangan Sa'diy Sheroziy, Avhadiy Kirmoniy, Sanoiy G'aznaviy, Amir Xusrav Dehlaviy va Hofiz Sheroziyni mansub, deb biladi. She'rida "majoz tariqi adosi g'olib" bo'lgan Kamol Isfahoniy, Xoqoniy Shervoniy, Xoju Kirmoniy, Kamol Xujandiy, Anvariy Abivardiy, Zahir Foryobiy, Salmon Sovajiy, Kotibiy Nishopuriy, Shohiy Sabzavoriy kabi shoirlar Navoiy tasnifi bo'yicha, shoirlarning uchinchi tabaqasiga taalluqli. Navoiy o'z ustozini – Abdurahmon Jomiy ijodi haqida alohida to'xtalib, uni ham haqiqat, ham majoz tariqini baravar egallagan, ikkinchi va uchinchi tabaqadagi shoirlar uslubini omuxta qilib, yangicha uslub va ravishga asos solgan shoir sifatida ta'riflaydi. Navoiyning o'zi ham g'azal tavrda ikkinchi tabaqadagi Amir Xusrav, Hofiz Sheroziy va Jomiyga izdoshlik qilgani, so'nggi ikki tabaqada zikr etilgan barcha shoirlarga tatabbu' qilgani hisobga olinsa, uning uslubi ham Jomiyniki kabi ham haqiqat, ham majoz tariqining unsurlaridan tarkib topganiga iqror bo'lamiz. Shoirlarning so'nggi tuban toifasi – she'rida ma'nodan ko'ra, da'vo ko'proq bo'lgan, shavq va ishq o'tidan bebahra, ma'rifat va haqiqatdan uzoq satrlar tizmasini yasash bilan umrini havoga sovrudigan nazmbozlardan iborat; har zamonda tasodifan biror yaxshi bayt aytgani bilan bu badiiy topilmalar ularning havoyi iddaolari, xudbinlik va g'arazgo'yliklarining pardasi ortida ko'rinmay qoladi. Mudarrislar va muallimlar, tabiblar va mutriblar, kotiblar va qissaxonlar ta'rifiga bag'ishlangan boblarda Navoiyning ta'lim va tarbiya, jamiyatning ziyoli qatlamiga asos bo'lguvchi kasb-kor egalariga munosabati o'zining yorqin ifodasini topgan. Navoiy o'z davrida

bunday kasb egalariga alohida g'amxo'rlik ko'rsatib, faoliyat yuritishlari uchun imkoni boricha qulay shart-sharoit yaratib bergan va bevosita ular bilan hamkorlik qilgan. Shu bois ularga berilgan tavsiflar ham yanada aniq, yorqin va haqqoniy chiqqan. Jumladan, kotiblar haqida ta'rif berarkan, kitobatning birlamchi sharti – matnni to'g'ri ko'chirish deb hisoblaydi. Navoiyning fikriga ko'ra, g'alati ko'p va chiroyli yozuvdan ko'ra, badxat bo'lsa ham, to'g'ri yozilgan matn yaxshiroq. Shunga o'xshash matlabni tabiblar zikridagi bobda ham o'qish mumkin. Navoiy aqidasi ko'ra, tabobat ilmi bilan shug'ullanuvchi kishilar uchta qurolga – chuqur bilim va zakovat, jarrohlik tig'i bilan ishlash malakasi hamda bemorlar bilan muloqotda yumshoq muomala madaniyatiga ega bo'lishi kerak. Begunoh bemorlarning umrini erta xazon qiluvchi, fe'li yomon, besavod va uquvsiz tabibdan ko'ra, hukmdorlar amri bilan ish tutuvchi jallod yaxshiroqdir: *Hoziq tabibi xushxo'y tan ranjig'a shifodur,*

Omiyyu tund-u badxo'y el jonig'a balodur

“Dabiriston ahli zikrida”gi bob – bolalarga boshlang'ich ta'lim beradigan, umrini yosh avlodning tarbiyasiga bag'ishlagan murabbiy va muallimlar haqida bo'lib, ushbu bob bola tarbiyasi va inson xulqini mukammallashtirishda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Bolalarga qattiqqo'llik bilan yozuv-chizuv, hisob va o'qishni o'rgatish mashaqqatini tortish “odamdin kelmas, qaysi odamki, dev qila olmas”. Muallimlarning bilimi ziyoli qatlamning boshqa toifasiga nisbatan kamroq bo'lishi mumkin, lekin bolalarning murg'ak qalbida ilm va ma'rifatga oshnolik va ishtiyoq o'tini yoqqanligi sababli, shogirdlar umrining oxirigacha birinchi ustozlari oldida ma'naviy qarzdorlik hissini tuyishlari lozim: “Shogird agar shayxulislom, agar qozidur, agar andin ustod rozidur – Tangri rozidur”. “Mahbub ul-qulub” boshqa pandnoma asarlardan muallifning o'zi yashagan jamiyatdagi barcha kasb-hunar egalariga tavsif berilgani bilan ham farqlanadi.

Navoiy salafлари pandnomalarida har bir jamiyatda uchrab turadigan tilanchi, gado, tayinli kasb-kor bilan shug'ullanmay, boshqalar hisobidan kun kechirishga odatlangan tekinxo'rlar, befoyda mashg'ulotlar bilan aziz umrini sovuradigan

kimsalar haqida alohida to'xtalinmagan. "Mahbub ul-qulub"da esa, ulardan farqli ravishda XV asr Hirotda yashab umrguzaronlik qilgan jamiyatning barcha qatlamlari ko'zgu yanglig' aks etgan, mavjud holat haqida aniq xulosa va haqqoniy fikrlar bayon qilingan. Tarixiy manbalarga ko'ra, Sulton Husayn Boyqaro davrida bir guruh mushtumzo'r va betayin kimsalar "yatim", "lavand", "olufta" nomlari bilan shuhrat topib, odamlarning tinchini buzish, yo'lto'sarlik va zo'ravonlikdan topgan mablag'larini aysh-ishratga sarflab yurganlar. Bu toifadagi kishilarga nisbatan murosasiz bo'lgan Navoiy ularning pichoqbozlik bilan odamlarni qo'rqitib yurishlarini yirtqich hayvonlarga, birovning mehnati orqali kun kechirishlarini zararkunanda hasharotga qiyoslab, "Zararkunandalarni o'ldiring" ma'nosidagi hadis hukmiga ko'ra, tavba qilib, rost yo'lga kirmaganlardan dunyoni butkul xoli ko'rishni tilaydi: Xaloyiqqa iyyo alarg'a sifot, Nabiy dedikim: "Uqtulul- mu'ziyot". Navoiyning xulosasiga ko'ra, har bir kasb-hunar, amal yo martaba, mansab yo vazifaning yaxshi-yomon bo'lishi o'sha kasbni egallagan odamning xulq-atvoriga bog'liq. Buyuk mutafakkir odamlarga ularning kasb-koriga qarab emas, balki faoliyatlari odamiylik mezoniga nechog'li mos kelish-kelmasligiga qarab baho berish kerak, degan aqidani turli misol va dalillar yordamida isbotlab bergan. "Mahbub ul-qulub"ning ikkinchi qismi "Hamida af'ol va zamima xisol zikrida" deb nomlanib, o'n bobda Navoiy ijodining o'zak masalalardan hisoblanmish tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, sabr, tavozu' (xoksorlik) va odob, zikr, tavajjuh, rizo, ishq kabi tushunchalarning irfoniy-axloqiy talqini keltirilgan. Har bir bobda ruhiy tarbiyaning muhim bosqichlari hisoblanmish ushbu o'nta insoniy fazilatning asl mohiyati ochilib, mashhur shayxlar va afsonaviy personajlar nomi bilan bog'liq ibratli hikoyat va rivoyatlar bilan quvvatlantiriladi. Ikkinchi qismda keltirilgan hikoyatlarning syujeti "Nasoyim ul-muhabbat", "Lison ut-tayr", "Bahoriston", "Risoi qudsiya", "Ilohiynoma" kabi asarlarda ham berilgan². Yuksak insoniy fazilatlarni targ'ib qiluvchi ushbu hikoyatlarda saj', tazod va muqobala, istiora, talmeh kabi ma'naviy hamda mushtarak san'atlarning unsurlari yordamida o'zbek tilining keng imkoniyatlari namoyish etiladi, hikoyat mantiqiy xulosani anglatuvchi

² Alisher Navoiy: qomusiy lug'at. Ikki jildlik.1-jild –T.: Sharq, 2016. – B. 329.

bayt bilan tugallanadi. Hikoyat qahramonlari turli toifaga mansub – oldin yashab o'tgan shayxlar, Navoiyning zamondoshlari, afsonaviy personajlardan iborat. Muallif bu bilan yaxshilikni targ'ib etishning turli usul va vositalaridan foydalangan. Jumladan, to'rtinchi bobda qanoat tushunchasiga ibodat quvvati hosil bo'lgunga qadar rizq hosil qilmoq va undan ortig'ini havas qilmaslik, aniqrog'i, butkul hayoldan ko'tarmoq, deya ta'rif beradi. Qanoat tuyg'usini nafsni boshqarish va shahvatga berilmaslik, izzat va shavkat sohibi bo'lish, ko'ngil ochiqligi va ko'z yorug'ligiga erishish, pastkashlik va badbaxtlikdan qutulishning eng samarali vositasi va eng maqbul yo'li, insonning azaliy dushmani – nafsdan qutqaruvchi qo'rg'on, do'stu dushman minnati va zahmatidan forig' etuvchi azamat bir tog', shodlik keltiruvchi talx mayga o'xshatadi. Bu fikrlarning isboti sifatida o'zining zamondoshi – Shayx Shoh Ziyoratgohiy hayotiga murojaat qiladi. Hikoyatda keltirilishicha, Shayx Shoh Ziyoratgohiy ulug' shayx va tariqat arbobi bo'lishiga qaramasdan, muridlarning nazr-niyozlari va podshohlarning in'om-u ehsonlaridan butkul ko'ngil uzib, otasidan meros qolgan yerda o'z qo'li bilan bog' bunyod etadi. Natijada, poytaxtdan amirzoda va a'yonlar ham bu ko'zi to'q shayxning ziyoratlariga borib, tabarruk uchun bog'idan mevalar olib keladilar. Navoiy ana shunday jonli misol orqali qanoat yo'lini tutgan kishi huzuriga hatto podshohzodalar ham muhtoj bo'lib kelishi, qanoat tufayli izzat va ehtirom sohibi bo'lish mumkinligini ko'rsatib, o'z fikrini quyidagi qit'a bilan yakunlaydi:

Jahon ichra ko'p sun' ko'rguzdi Sone'

Emasdur kishi turfa andoqki, qone'.

Kishidin talabsiz g'ino hosil etmak,

Yana judg'a bo'lmamoqhech mone'. (“Mahbub ul-qulub” 4- bob 30- bet)

Gunohlarga sabab bo'luvchi yomon xislatlar garchi boblar sarlavhasida ko'rsatilmagan bo'lsa-da, muayyan yaxshi xulq-atvorga ta'rif berishda uning ziddi hisoblangan yomon xislatlarga ham ta'rif berilgan. Jumladan, tavozi' (xoksorlik) va adab zikriga ajratilgan bobda tavoze'li bo'lishni go'zal axloqning ilk nishonasi, samimiy munosabatlarning ibtidosi va asosi sifatida talqin qilib, ushbu xislat, eng avvalo, o'ziga to'q va amaldor kishilarda bo'lishi lozimligini ta'kidlanadi.

Xokсорlik va adab ko'ngil ko'zгusining ikki tarafidan jilo berib, musaffo va yorug'etadi. "Mahbub ul-qulub"ning uchinchi qismi "Mutafarriqa favoyid va amsol surati" ("Turli foydali o'g'itlar va masallar") deb nomlanib, 127 tanbehdan iborat.

Asarda shayx ul-islom, qozi, muftiy va mudarrislar haqida ham fikr yuritilib, ularning qilgan yaxshi va yomon ishlari elga ibrat qilib ko'satiladi. Xususan, shayx ul-islom musulmonlar peshvosi bo'lib, musulmonlar uning yo'lidan borishlari lozim deyiladi. U islom dinining himoyachisi va targ'ibotchisi bo'lishi kerak. Rad etib bo'lmas darajada haq so'zni so'zlovchi, shariat qonunlarida mustahkam va barqaror turuvchi, fayzli va obro'li odam bo'lmog'i shart. Shunday bo'lgandagina uni "shayx ul-islom" desa bo'ladi, deydi. Shundaylardan birini misol qilib keltiradi. Bayt: Mundin o'ldi muqarrabi Boriy, Shayx al-islom piri Ansoriy Qozilar musulmonlarning yaxshi va yomon ishlari yuzasidan hukm chiqaruvchilar deb ta'riflanadi. Bu toifa ahlini Navoiy cholg'u asbobiga o'xshatadi. "Soz toridekkim, e'tidoldin tajovuz qildi, tuzuki buzuldi. Ulki hukmi el moli va jonig'a joriy bo'lg'ay, kerakkim, da'bi muqmir shiori bo'lg'ay. Ayog'ikim, siroti mustaqimdin toyildi. Vayl chohi tubin maqom qildi. Bu ishni o'zi qilurmen degan beboku kozib, kozibi bebokka payg'ambar shar'i hokimlig'ig'a ne munosib" Navoiy tabiblarni ham tanqid qiladi. Tabobat fanidan savodsiz tabib xuddi jallodning shogirdi kabidir. U tig' bilan o'ldirsa, bu zahar bilan azoblaydi. Shubhasiz, jallod bunday tabibdan yaxshiroqdir: chunki, u gunohkorlarni o'ldiradi, bu esa begunohlarni halok qiladi deb ta'riflaydi.

Bayt:

Hoziq tabibi xushgo'y tan ranjig'a shifodur,

Omiyyu tundu badxo'y el jonig'a balodur. ("Mahbub ul-qulub" 15 fasl.12- bet)

"Nazm gulistonining xushnag'ma qushlari" bobida shoirlar qushga o'xshatilgan. Shoirmi qushga o'xshatish adabiyotda oldindan bor edi. Bu yerda shoirlarning she'r ijod qilishi bilan qushlarning sayrash xususiyati asos qilib olingan. Navoiy shoirlarni 5 guruhga ajratgan. "Avvalg'i jamoat-nuqudi kunuzi ma'rifati ilohiydin g'aniylar va xalq ta'rifidin musta'niylardur. Ishlari maoniy xazoinidin ma'rifat javharin termak va el fayzi uchun vazn silkida nazm bermak.

Nazm adosi bag‘oyat arjumand va benihoyat sharif va dilpisand o‘ldug‘i uchun oyoti kalomda nozil bor va hadisi mu‘jiz nizomda tilagan topar, chun maal-qasd emas, el hurmati jihatidin ani she‘r demas”. “Bu guruh ijodi mohiyatini to‘la tushunib olish uchun tasavvufda uch bosqich, ya’ni shariat, tariqat va haqiqat borligini ko‘z oldimizga keltirishimiz kerak. Demak, birinchi guruh shoirlari faqat haqiqatni qalamga olgan. Ya’ni bunday sohibi qalamlar asarlarida to‘g‘ridan to‘g‘ri Oллоh taolo, uning sirlari, so‘zlari ta’riflangan”³. Alisher Navoiy bunday shoirlarning peshvosi deb amir ul-mo‘min Hazrat Alini ko‘rsatadi. Yana forsiylardan Shayx Fariduddidin Attor, “Masnaviyi ma’naviy” muallifi Jaloliddin Rumiyni aytadi. Ikkinchi guruh shoirlariga haqiqat sirlariga majoz sirlarini aralashtirib, o‘z fikrlarini shu uslubda ifoda etuvchilarni kiritadi. Bular Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Shayx Zahiriddin Sanoiy, Shayx Avhadiddin, Xoja Shamsiddin Muhammad Hofiz. “Demak, borliq olamni va uning sarvari bo‘lmish insonni, uning muhabbatini kuylashni birlamchi hisoblagan, shu yo‘l bilan ramzan Oллоhga ishqni ifodalagan shoirlar ikkinchi guruhga kirar ekan. Ular haqiqat bilan majozni omixta qilib yozadi. Oddiy lashtirib tushuntirganda, ular yor deb go‘yo Yerdagi ma’shuqani tasvir laydi-yu, undan o‘sha haqiqiy yorni ko‘zda tutaveradi, ikkalasi aralash keladi”⁴. Uchinchi guruh shoirlar asarlarini “ma’juziy ma’nodadir” deb ta’riflaydi shoir. Ulardan quyidagi shoirlarni misol tariqasida ko‘rsatadi: Kamol Isfahoniy, Hoqoniy Shervoniy, Hoju Kirmoniy, Mavlon o Jaloliddin, Anvari y, Zahir, Abdulvosi’, Salmon Sovajiy, Nosir Buxoriy, Kotibiy Nishopuriy va Shohiy Sabzavoriy. Mavlon o Jomiyni to‘rtinchi guruhga kiritib, “birinchi guruh ravishida so‘zi sharafli va so‘nggi guruhning ham uslubi go‘zalliklarida kamol egasidirki, dunyodagi ilohiy haqiqat shaydolari ham, pok insoniy muhabbat ahllari ham bularning latif va ma’nodor so‘zlari bilan xushnuddirlar va tarqatgan ma’rifatlari bilan huzur qiladilar”² -deya ta’riflaydi. Bilamizki, “Mahbub ul-qulub” – pandnoma asar. Unda pand-nasihat, o‘git birinchi o‘rinda turadi. Shuning uchun shoirlar zikridagi fasl ham ana shunday tanqid-u

³ <https://www.samdu.uz/uz/news/22699> www.samdu.uz (<https://www.samdu.uz/uz/news/22699>)

⁴ Alisher Navoiy. Asarlar. 13-jild. – T.: 1966, 191 – B.

o'g'itdan xoli emas. Yuqorida sanalgan to'rt guruh ta'rif-u tahlili tugagach, Navoiy endi shoirlarning yana bir "adno", ya'ni past tabaqasini – beshinchi guruhni qalamga oladi: "Yana adno tabaqasi jamoatedurlarkim, nazm bila faqat ko'ngullar xushnud va xursand va roziyu bahramanddurlar"– deya ta'riflaydi. Qizig'i shundaki, bu toifa shoirlarning ko'pchiligining she'rida ma'no ozroq va shoirlik da'volari ko'proqdur.

"Ruboiy:

A'lolari ularning eng yaxshisidir,

Tubanlari esa barcha tubanlar tubani.

O'rtoqlari esa hech narsaga yaramaydi,

Bilgilkim, yaxshisi ulardan og'iz ochmaslik kerak". ("Mahbub ul-qulub" asari)

Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida mamlakatdagi u yoki bu toifaga taalluqli kishilarga o'z munosabatini bildirganda, asosan ularni kontrast ikki tipga mansub deb baholaydi. Negadir, ularning barchasi bir xil darajadagi johillar yoki odillar turkumiga dahldor ekanligi, ya'ni ijobiy yoki salbiy xarakterli deb mutafakkirni tan olishi ayrim shubhalarni vujudga keltiradi.⁵ Lekin insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida yomonlik bilan yaxshilik o'rtasida uzluksiz kurash borishi shaxsning psixologik xususiyatlari, sifatleri, fazilatlari tarkib topishida ham baholashning bu ikki mezonni faol ishtirok etadi. Xuddi shu bois, yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi ayovsiz kurashda ham adolat yoki yaxshilik g'alaba qiladi, o'z-o'zidan yomonlik (yovuzlik) mag'lub bo'ladi. Bu ijtimoiy voqelik xalq ijodiyotida markaziy o'rin egallaydi. Bu borada biz Navoiyning shaxsiy qarashlariga tanqidiy munosabat bildirishdan yiroqmiz, biroq shaxslarning individual-psixologik xususiyatlari aynan bir-biriga identik emasligini ta'kidlab o'tmoqchimiz, xolos.

Navoiyning mulohazalarini tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, jazolash bilan guruhliy, ijtimoiy xususiyat, kasb etuvchi illatlarni bartaraf qilish imkoniyatini quyi bo'lganligi tufayli kishilarga hatto mansabdorlarga ta'sir o'tkazishning boshqa

⁵ <https://www.samdu.uz/uz/news/22699> www.samdu.uz (<https://www.samdu.uz/uz/news/22699>)
www.tadqiqotlar.uz

shakllarini tatbiq etish yuzasidan jamiyatga va uning boshqaruvchisiga taklif beriladi. Bizningcha, Navoiy mansabdorga tanbeh berish, psixologik maslahat (konsultatsiya)ni amalga oshirish, hakimlar tomonidan psixokorreksiya ishlarini yo‘lga qo‘yish, ular bilan mashg‘ulot (trening) o‘tkazish ijobiy natijalarni ro‘yobga chiqarish to‘g‘risida fikr yuritgan bo‘lsa, ajab emas.

Ma'lumki, zindonband qilish, osish, boshini chopish orqali mamlakatda tartib-intizom o‘rnatish, shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish mumkin emas. Navoiy ana shunga iqror bo‘lganligi sababli sadrlarga jamoatchilik fikri yordami bilan ta’sir o‘tkazish yuqori samara berishi haqidagi ilmiy faraz (taxmin)larini ilgari suradi. Shu bilan birga reorientatsiya (hayotga qaytadan yo‘naltirish)ni turmushga tadbiq etish imkoni mavjud ekanligiga ishonch his-tuyg‘usi vujudga keladi, demak uning uchun xalqparvarlik (millatparvarlik) ustuvor ahamiyat kasb etishidan darak beradi. Alisher Navoiy yuqoridagi fikrlarni ilgari surishi bilan turmushda keskin islohotlarni amalga oshirishi o‘ta murakkab muammo ekanligini to‘g‘ri (adekvat) tasavvur qilganligi uchun dastlabki qarashlardan mutlaqo voz kechmaydi. Shuning uchun sadrlarga dahldor masnaviyini fuqarolar hukmiga havola qiladi:

Sadr buzmas faqat mayxo ‘r, palidni,

buzg‘ay hojani, hatto sayidni.

O‘zi ayyoru makkordir sarosar,

So‘zi ko‘p yaltiroq, to‘n zebu zevar.

To‘rtlikda mansabdorlarni xaqiqiy psixologik qiyofasini, xarakterologik xususiyatlarini ochib tashlashga xamisha tayyor ekanligini anglatadi, shu bilan birga, xalqimizning dono hikmatlariga to‘liq (mansab kishini buzadi; sadoqatini sinash uchun unga amal berib ko‘r va h.k) rioya qiladi.

XULOSA

Navoiy o‘z ijodida individual tarbiyaning ijtimoiy asoslari hamda ularning inson ruhiy olamidagi obyektiv va subyektiv xususiyatlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri tahlil qilishni emas, balki shaxsning ijtimoiy faoliyati, individual xislati orqali ko‘zga tashlanadigan belgilarni badiiy umumlashtiradi. Shu bois shaxs xarakterining tadriji

shaxsning aktiv faoliyati jarayonida kuzatiladigan hatti-harakatlariga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Eng muhimi avoiy tomonidan badiiy tasvirga olingan mansabdor shaxslar faoliyatidagi salbiy illatlar, xarakter-xususiyatlar adekvat (mos) asosli bo‘lib, bu illatlar har qanday davrda va jamiyatda kuzatiladi. Zero, bu kabi xarakterning tarkib topishi muayyan psixologik qonuniyatlar ta’sirida yuzaga keladi. Ana shu nuqtai nazardan qaralganda, Navoiy merosi nafaqat badiiy jihatdan, balki psixologik, kognitologik jihatdan ham tadqiq etilmog‘i lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at. Ikki jildlik.1-jild –T.: Sharq. 2016. – B. 329.
2. Alisher Navoiy. Asarlar.13-jild. – T.: 1966, 191 – B.
3. Sulaymonov M.Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida mansabdorlar va maqtonchoqlar haqidagi psixologik holatlarning ifodasi// O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. –T., 2010.
4. <https://www.samdu.uz/uz/news/22699> www.samdu.uz
(<https://www.samdu.uz/uz/news/22699>)